

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ABDULLAYEV DIYOR IBODILLAYEVICH

**JINOYAT PROTSESSIDA EHTIYOT CHORASI SIFATIDA UY
QAMOG'INING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Abdullayev Diyor Ibodillayevich

Jinoyat protsessida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari.....3

Абдуллаев Диёр Ибодиллаевич

Особенности домашнего ареста как меры пресечения в уголовном процессе25

Abdullayev Diyor Ibodillayevich

The peculiarities of house arrest as a preventive measure in criminal procedure.. 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ.....54

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ABDULLAYEV DIYOR IBODILLAYEVICH

**JINOYAT PROTSESSIDA EHTIYOT CHORASI SIFATIDA UY
QAMOG‘INING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu893 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” ta’lim Axborot ta’lim tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Bazarova Dildora Baxadirovna yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Tuxtasheva Umida Abdilovna yuridik fanlar doktori, professor Sattarov Alisher Yarashevich yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)
Yetakchi tashkilot:	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 10-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel./faks: +99871-233-66-36; faks: +99871-233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1419-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871-233-66-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 25-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 25-avgustdagi 52-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

I.B. Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

N.S. Salayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoiy sud ish yurituvida qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan, insonparvar va iqtisodiy jihatdan samarali muqobil ehtiyot choralarini qo'llashga talab tobora kuchaymoqda. Penal Reform International va Yevropa Kengashi ma'lumotlariga ko'ra¹, Yevropada 1,3 milliondan ortiq kishi probatsiya nazoratining turli shakllarida, jumladan uy qamog'i va elektron monitoring ostida bo'lib, bu har 100 ming aholiga o'rtacha 164 kishini tashkil etadi. Polsha, Turkiya, Latviya, Fransiya, Angliya va Uels kabi davlatlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori. Osiyo davlatlari, jumladan Xitoy va Singapurda ham uy qamog'ini qo'llash amaliyoti kengayib bormoqda². Shunga qaramay, qamoqxonalardagi mahbuslarning 21,7 foizi tergov jarayonidagi shaxslar hisoblanadi³, bu esa jinoyat protsessida qamoqqa olishni asossiz qo'llash muammosi dolzarbligini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni hal etish uchun xalqaro miqyosda uy qamog'ini qo'llashning yagona standartlarini ishlab chiqish, elektron nazorat tizimlarini takomillashtirish va inson huquqlarini teng ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda jinoiy odil sudlov sifatini oshirish, protsessual majburlov va ehtiyot choralarining samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy izlanishlar tergov hibsonalarida uzoq vaqt saqlash voyaga yetmaganlar va ayollar kabi himoyaga muhtoj shaxslarning psixologik va ijtimoiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Biroq, ilmiy jamoatchilik tomonidan uy qamog'ini qo'llash amaliyotining ayrim jihatlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Xususan, uy qamog'i qo'llanilgan shaxsning muloqot qilishi taqiqlangan shaxslar doirasini belgilash va uning sayr qilish huquqi bilan bog'liq masalalar hali to'liq hal etilmagan. Bu muammolar uy qamog'i institutini nazariy-huquqiy va amaliy jihatdan kompleks o'rganishni, uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekistonda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlari kuchaytirilmoqda. Jumladan, tergov sudyasi instituti joriy etilib, uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llash masalasi sud vakolatiga o'tkazildi. Bu esa insonning shaxsiy daxlsizlik huquqini sud tomonidan ishonchli himoya qilinishini ta'minladi. Shuningdek, uy qamog'i qo'llanilgan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan nazorat qilish tizimini joriy etish belgilandi. Shu bilan birga, Prezidentning 2018- yil 14-maydagi PQ-3723-sonli Qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi⁴da sud-tergov amaliyotida, jumladan jinoyat va jinoyat-protsessual

¹ Global Prison Trends // <https://www.penalreform.org/global-prison-trends/>

² Justice Trends Magazine // <https://justice-trends.press/>

³ CEP Report on Electronic Monitoring in Europe // <https://www.cep-probation.org/>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son

qonunchiligidagi ayrim normalarning mukammal emasligi bilan bog'liq bo'lgan qator muammo va kamchiliklarni ko'rib chiqish hamda protsessual harakatlarni amalga oshirish tartiblarini, jumladan protsessual majburlov xarakteridagi choralarni qo'llash institutini rivojlantirish asosiy vazifalaridan etib belgilangan. Bu vazifalar uy qamog'i institutini milliy qonunchilik va amaliyotga moslashtirish, uning samaradorligini oshirish bo'yicha chuqur tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrdagi O'RQ-298-son "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4850-son "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-dekabrdagi 813-son "Uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi farmon va qarorlar hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jinoyat protsessida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining ayrim jihatlariga oid ilmiy izlanishlar respublikamizdagi bir qator taniqli olimlar: B.X. Po'latov, Z.F. Inog'omjonova, U.A. Tuxtasheva, D.B. Bazarova, G.Z. Tulaganova, D.J. Suyunova, B.B. Xidoyatov, J.I. Safarov, I.R. Astanov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ularning jinoyat protsessual majburlov va ehtiyot choralarga doir ilmiy-tadqiqot ishlarida uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi va uni qo'llashning umumiy jihatlari o'rganilgan.

Jumladan, G.Z. Tulaganova tomonidan jinoyat protsessida protsessual majburlov va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Biroq, jinoyat protsessida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i, uni qo'llashning protsessual asoslari, shartlari va tartibiga, shuningdek uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxsga nisbatan elektron kuzatuv vositalarini qo'llashning o'ziga xos jihatlariga kompleks yondashilmagan. Shu bois ham, mazkur masalani tadqiq etish masalasi dolzarb ahamiyatga egadir.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lgan davlatlarda tadqiq qilinayotgan mavzuning ayrim jihatlari Y.G. Ovchinnikov, Y.V. Saltikov, V.A. Svetochev, D.A. Dolgushin, V.V. Klimov, K.S. Abdiraxmanov,

S.V. Koloskovoy, Y.Y. Axminova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida kompleks tarzda tadqiq etilgan.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda Jeffrey N.Hurwitz, Samuel R.Wiseman (AQSh), J.H. Crijns, B.J. G.Leeuw, H.T. Wermink (Niderlandiya), Silviu Jirlaianu (Ruminiya), Gaurav Thote (Hindiston), Mariam Gelashvili (Gruziya), Braithwaite John (Avstraliya) tomonidan mavzuning ayrim jihatlar borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan¹.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, "Jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarining ishonchli kafolatini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish", "Jinoyat-protsessual qonunchilik normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish" kabi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat protsessida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining o'ziga xos jihatlarini kompleks tahlil qilish va ayrim xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish orqali uning qo'llanilish samaradorligini oshirishga qaratilgan jinoyat-protsessual normalarni yanada takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining tushunchasi, mohiyati va ehtiyot choralari tizimidagi o'rnini tadqiq etish;

uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning rivojlanish tarixini o'rganish;

xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining huquqiy tartibga solinishini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;

ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llashning protsessual asoslari va shartlarini nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilish;

uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash tartibi va muddatlari bo'yicha milliy qonunchiligimiz amaliyotini ko'rib chiqish;

uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini boshqa ehtiyot choraga almashtirishning protsessual tartibiga doir jihatlarini o'rganish;

jinoyat protsessida shaxsni uy qamog'ida saqlashning huquqiy rejimi hamda bunda shaxsga nisbatan o'rnatilishi mumkin bo'lgan taqiq(cheklov)larning turi va doirasini tadqiq etish;

ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qilish asosida erishilgan xulosalardan kelib chiqib, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida jinoyat protsessida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash bilan bog'liq jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

¹ Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

Tadqiqotning predmeti ehtiyot chorasini sifatida uy qamog'ini qo'llash bilan bog'liq jinoyat-protsessual va boshqa ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuv va ilmiy-nazariy qarashlar hamda sohaga doir tergov va sud amaliyoti tendensiyalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini olib borishda ilmiy bilishning tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, formal-huquqiy, statistik usullaridan, shuningdek sotsiologik so'rovlar o'tkazish, sudlar tomonidan ko'rilgan hamda tergov jarayonidagi jinoyat ishi materiallarini tahliliy o'rganib chiqish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqida iltimosnoma ko'rib chiqilishi jarayonida uning huquq va qonuniy manfaatlarini yanada samarali himoya qilinishini ta'minlanishida himoyachi ishtiroki zarurligi sababli shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, shuningdek qamoqda saqlash, uy qamog'i muddatini uzaytirish masalasi ko'rib chiqilayotganda ishda himoyachi ishtirok etishi shartligi asoslantirilgan;

qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash tartibida ish himoyachi ishtirokisiz sud tomonidan ko'rib chiqilmasligini kafolatlash zarurligi sababli, sud majlisining joyi, sanasi va vaqti haqida lozim darajada xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish uchun monelik qilmasligi, ammo bu qoida himoyachiga nisbatan tatbiq etilmasligi asoslantirilgan;

uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llanilayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni kuchaytirish zaruriyati sababli surishtiruvchi, tergovchi, prokuror gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan uy qamog'i tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo'llaganida bu haqida hamda uning ushlab turilgan joyi to'g'risida darhol oila a'zolaridan biriga, ular bo'lmagan taqdirda esa boshqa qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga xabar berishi, shuningdek bu haqda ish yoxud o'qish joyiga ma'lum qilishi, shuningdek, uy qamog'iga joylashtirilgan shaxs boshqa davlatning fuqarosi bo'lsa, bu haqda darhol O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar berilishi shartligi asoslantirilgan;

uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llanilgan shaxslarni masofadan turib nazorat qilish amaliyotini yo'lga qo'yilishida uning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni hamda aniq majburiyatlari belgilanish lozimligi sababli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi elektron braslet qo'llanilishidan oldin, bu bilan bog'liq huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ijrochi xodimlardan olish, elektron brasletni jarohat mavjud bo'lgan oyoqdan yechib, sog' oyoqqa yoki qo'lga taqish bo'yicha ijrochi xodimlarga yozma murojaat qilish, tibbiy ko'rsatma asosida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish yoki tibbiy tekshiruvdan o'tkazish

davomida elektron brasletni vaqtincha yechib turishni so‘rash (tibbiy tekshiruvlar tugagunga qadar), elektron brasletda nosozlik yuzaga kelganda, uni soz elektron brasletga almashtirish bo‘yicha ijrochi xodimlarga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi, shuningdek, elektron brasletni belgilangan vaqt ichida quvvatlab borish orqali uning elektr quvvati tugamasligini ta‘minlashi, elektron brasletni o‘zboshimchalik bilan yechmasligi, elektron brasletga zarar yetkazish bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirmasligi shartligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘ining huquqiy tabiati va mazmunini nazariy-metodologik jihatdan tushunish, uning elementlari, terminlarni turlicha talqin qilinishining oldini olish maqsadida “uy qamog‘i” tushunchasiga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilib, huquqni qo‘llash amaliyotiga tadbiiq etish zaruriyati asoslangan;

uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasini qo‘llash shartlari – bu aynan mazkur ehtiyot chorasini qo‘llashga yo‘l ochib beradigan va uni qonuniyligini ta‘minlaydigan jinoiy-huquqiy va faktik shart-sharoitlar ekanligi hamda mazkur shartlarni umumiy va maxsus shartlarga bo‘linishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasini qo‘llanishi faktik (maxsus) shartlarining ayrimlari, xususan, shaxsning keksaligi, nogironligi, homiladorligi, yosh bolasi borligi, voyaga yetmaganligi uchun qamoqqa olishga asoslar mavjud bo‘lsa-da, uy qamog‘ini qo‘llash shartligi asoslangan;

prokurorning qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnoma asosligini tekshirishi natijalaridan taraflar norozi bo‘lsa, uning harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishi mumkinligi asoslangan;

uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari qo‘llanilishi mumkinligi, bunda shaxs ularning soz holda ishlashini ta‘minlashi lozimligi, qurilmada bartaraf qilib bo‘lmaydigan nosozlik yuzaga kelganda bu haqda darhol nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar xodimini yoki tergovchini xabardor qilishi shartligi asoslangan;

uy qamog‘i ehtiyot chorasining qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan barcha cheklov(taqiql)lari belgilangan hollarda shaxsni yurish huquqidan mahrum qilish adolatsizlik bo‘lishi, sudlar tomonidan uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanayotganda yurish (sayr qilish) huquqini ta‘minlanishi majburiy belgilanishi lozimligi asoslangan;

huquqni qo‘llash amaliyotida mazkur ehtiyot chorasini qo‘llashdan ko‘zlangan protsessual maqsadlarga erishish uchun uy qamog‘i ehtiyot chorasi ijrosini nazorat qilishda maxsus elektron kuzatuv moslamalaridan foydalanishni keng yo‘lgan qo‘yish, bunda qo‘l va oyoq tasmalaridan foydalanishga, ayniqsa kuzatuv kameralarini ayblanuvchi, sudlanuvchi yashayotgan uyning kirish-chiqish joylariga o‘rnatishga alohida e‘tibor qaratilishi zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari qonunchilik normalari, bir qator xorijiy davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyoti, jinoyat-

protsessual huquqi nazariyasining umume'tirof etilgan qoidalari va boshqa ishonchli manbalar, yetarli ilmiy dalillarga tayanib isbotlangan bo'lib, uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llashga oid masalada jami 136 nafar sudya, shuningdek, advokat, tergovchi, izlanuvchi va olimlar orasida so'rovlar o'tkazilgan, tadqiq etilayotgan masalaga doir jami 100 dan ortiq ajrim, xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganilgan hamda statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, umumlashtirilgan va tegishli tartibda rasmiylashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, muallif tomonidan jinoyat-protsessual ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash mexanizmlari kompleks tadqiq qilingan, uning o'ziga xos xususiyatlarini anglashga oid nazariy xulosa va qoidalar jinoyat protsessi maqsadlari bilan o'zaro munosabati tahlil qilingan bo'lib, mavzuga oid ilmiy-nazariy xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar kelgusidagi ilmiy faoliyatda, jinoyat-protsessual huquqi fanini nazariy jihatdan boyitishga, jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini sharhlashga hamda yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan jinoyat protsessual qonunni takomillashtirish hamda huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining samarali mexanizmlarini joriy etishda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksini takomillashtirish hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat-protsessual huquqi fanini o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jinoyat protsessida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi takliflar joriy qilingan:

shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, shuningdek qamoqqa saqlash, uy qamog'i muddatini uzaytirish masalasi ko'rib chiqilayotganda ishda himoyachi ishtirok etishi shartligi to'g'risidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi JPKning 51-moddasining birinchi qismini o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yil 13-iyuldagi 45-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqida iltimosnoma ko'rib chiqilishi jarayonida uning huquq va qonuniy manfaatlarini yanada samarali himoya qilinishiga xizmat qilgan;

sud majlisining joyi, sanasi va vaqti haqida lozim darajada xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish uchun monelik qilmasligi mumkinligi, ammo bu qoida himoyachiga nisbatan tatbiq etilmasligi zarurligi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi JPKning 243-moddasining yettinchi va sakkizinchi qismlariga o'zgartirish kiritishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yil 13-iyuldagi 45-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi shaxsga

nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish jarayonida himoyachi ishtirok etishi shartligini kafolatlashga xizmat qilgan;

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan uy qamog‘i tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo‘llaganida bu haqida hamda uning ushlab turilgan joyi to‘g‘risida darhol oila a‘zolaridan biriga, ular bo‘lmagan taqdirda esa boshqa qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga xabar berishi, shuningdek bu haqda ish yoxud o‘qish joyiga ma‘lum qilishi, shuningdek, uy qamog‘iga joylashtirilgan shaxs boshqa davlatning fuqarosi bo‘lsa, bu haqda darhol O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar berilishi shartligi to‘g‘risidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi JPKning 217-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 1-noyabrdagi 27/2-313-24-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni kuchaytirishga xizmat qilgan;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi elektron braslet qo‘llanilishidan oldin, bu bilan bog‘liq huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ijrochi xodimlardan olish, elektron brasletni jarohat mavjud bo‘lgan oyoqdan yechib, sog‘ oyoqqa yoki qo‘lga taqish bo‘yicha ijrochi xodimlarga yozma murojaat qilish, tibbiy ko‘rsatma asosida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish yoki tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish davomida elektron brasletni vaqtincha yechib turishni so‘rash (tibbiy tekshiruvlar tugagunga qadar), elektron brasletda nosozlik yuzaga kelganda, uni soz elektron brasletga almashtirish bo‘yicha ijrochi xodimlarga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi, shuningdek, elektron brasletni belgilangan vaqt ichida quvvatlab borish orqali uning elektr quvvati tugamasligini ta‘minlashi, elektron brasletni o‘zboshimchalik bilan yechmasligi, elektron brasletga zarar yetkazish bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirmasligi shartligi haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-dekabrdagi 813-son qaroriga asosan tasdiqlangan “Uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 25-26-bandlari loyihasini tayyorlashda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 18-dekabrdagi 24-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxslarni masofadan turib nazorat qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yilishida uning huquq va erkinliklarini muhofaza qilinishiga hamda aniq majburiyatlari belgilanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 5 ta (jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, ilmiy jurnallarda 6 ta maqola

(shundan, 1 ta xoriyda) va 3 ta tezis (shundan, 2 ta xoriyda) ilmiy anjumanlar to'plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 9 paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlariga mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jinoyat protsessida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i tushunchasi, mohiyati va tarixiy aspektlari**" deb nomlangan bo'lib, ikki paragrafdan iborat. Birinchi paragraf "*Ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining tushunchasi, mohiyati va ehtiyot choralari tizimidagi o'rni*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining tushunchasi, uning huquqiy mohiyati va ehtiyot choralari tizimidagi o'rni, shuningdek, mazkur ehtiyot chorasining qonuniy tartibga solinishi masalalari hamda huquqiy kategoriya sifatida mazmun-mohiyati milliy va xorijiy olimlarning fikrlari asosida tizimli ravishda tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan uy qamog'i ehtiyot chorasi – bu ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining shaxsiy erkinligini cheklovchi, biroq uni jamiyatdan to'liq ajratmaydigan, nisbatan yumshoq turdagi majburlov chorasi ekanligi, uni qo'llash insonparvarlik hamda mutanosiblik tamoyillariga muvofiq kelishi asoslab berilgan. Mazkur ehtiyot chorasi jinoyat-protsessual qonunchilikda 2014-yilda belgilangan bo'lib, unda ayblanuvchining yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli va boshqa muhim holatlar e'tiborga olinib, qamoqqa olishning alternativ usuli sifatida tatbiq etiladi. Paragrafda uy qamog'ining qonuniy asoslari, sud qarori bilan qo'llanilishi, cheklov (taqiq) turlari, shaxsning erkin harakatlanishiga qo'yiladigan chegaralar, shuningdek, uning ustidan nazorat qilish mexanizmlari milliy va xalqaro tajriba asosida tahlil qilingan.

Shuningdek, dissertant tomonidan uy qamog'ining boshqa ehtiyot choralari bilan solishtirgandagi afzalliklari va kamchiliklari, ijtimoiy moslashuvga ta'siri, qayta jinoyat sodir etish xavfini kamaytirishdagi roli va amaliyotda qo'llanish holatlari ustida ham ilmiy-nazariy mushohada yuritilgan. Mazkur ehtiyot chorasining o'ziga xos xususiyatlari qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasi bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, o'xshash va o'zaro farqli jihatlari ochib berilgan. Bunda dissertant tomonidan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi faqat ushlab turilgan gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchi

tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkinligi, protsessual ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i va ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olishning o'xshash tomonlari ularning jinoiy sud ishlarini yuritishning maxsus vazifalarini hal etishga imkon berishida namoyon bo'lishi asoslab berilgan.

Muallif tomonidan ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining huquqiy tabiati va mazmunini nazariy-metodologik jihatdan anglash maqsadida "uy qamog'i" tushunchasining tarkibidagi tuzilishi tahlil etilib, uning etimologik, lingvistik, nazariy va boshqa asoslari asosida ilmiy yondashuv ishlab chiqilgan. Terminologik noaniqliklarning oldini olish hamda bir xillikni ta'minlash maqsadida "uy qamog'i" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, uni amaliyotda qo'llash uchun taklif etilgan. Shuningdek, B.B.Xidoyatov, Z.F.Kovriga, K.T.Baltayev, N.V.Tkacheva kabi olimlarning qarashlari asosida mazkur institutning huquqiy mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi ilmiy tahliliy xulosalar ilgari surilgan.

Muallif ushbu bobning "*Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning rivojlanish tarixi*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida xorijiy mamlakatlar huquqni qo'llash amaliyotida va milliy qonunchiligimizda ushbu ehtiyot chorasining vujudga kelishi, tarixiy shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonini huquqiy hamda tarixiy manbalar asosida kompleks tarzda tahlil qilgan.

Paragrafda qayd etilishicha, inson erkinligini cheklash orqali xavfsizlikni ta'minlash g'oyasi qadimiy ildizlarga ega bo'lib, uy qamog'i ehtiyot chorasining ilk tarixiy ko'rinishlari miloddan avvalgi XI asrga oid bo'lgan tarixiy manbalarda uchraydi. Ushbu chora O'rta asrlarda yuqori ijtimoiy maqomga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan jamiyatdan to'liq ajratmasdan erkinligini muayyan hududda cheklash shaklida qo'llanilgan. Tarixiy misollar qatorida olim Galileo Galiley, Yelizaveta Batori kabi shaxslarga nisbatan qo'llangan uy qamog'i holatlari alohida ko'rsatilgan.

Dissertant, shuningdek, ushbu ehtiyot chorasi zamonaviy huquqiy institut sifatida dastlab 1832-yilda Rossiya imperiyasi qonunchiligida mustahkamlangani, keyinchalik AQShda 1983-yildan boshlab elektron kuzatuv texnologiyalarini qo'llash asosida samaradorligi oshirilgani, Yevropa davlatlarida, jumladan, Fransiya va Germaniyada ham bosqichma-bosqich qonuniy asoslar bilan mustahkamlanib borgani haqida tahliliy mulohazalar keltiradi. Ushbu tarixiy evolyutsiya uy qamog'i ehtiyot chorasining xalqaro tajribadagi amaliyotini huquqiy nuqtayi nazardan chuqur anglash imkonini beradi.

Bundan tashqari, 2014-yilda Jinoyat-protsessual kodeksining 242¹-moddasi orqali milliy qonunchilikda ushbu ehtiyot chorasining huquqiy asoslari belgilab berilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan unga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi natijasida mazkur institut yanada takomillashtirildi. Muallif tomonidan qonunchilikda sodir bo'lgan mazkur o'zgarishlar tahlil qilinib, uy qamog'i ehtiyot chorasining milliy huquqiy tizimimizdagi rivojlanishi davrlashtirish asosida to'rtta bosqichga ajratilgan. Har bir bosqichda uning normativ-huquqiy asoslari, huquqiy mazmuni, jinoyat protsessida tutgan o'rni hamda inson huquqlarini himoya

qilishdagi funksional ahamiyati alohida ko'rib chiqilgan. Shu orqali dissertant uy qamog'i ehtiyot chorasining tarixiy ildizlari, zamonaviy huquqiy shakllanishi va amaliy qo'llanilishi o'rtasida izchil ilmiy bog'liqlikni yoritib bergan hamda ushbu institutni yanada takomillashtirish zaruratini ilmiy asoslab bergan.

Mazkur bobda uy qamog'i tushunchasi va mazmun-mohiyati tadqiq etish orqali muallif tomonidan u shaxs erkinligini uning tabiiy huquqlari va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirgan holda cheklovchi ehtiyot chorasi ekanligi haqida xulosa berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash bo'yicha xorijiy tajriba”** deb nomlangan bo'lib, uch paragrafdan iborat. Mazkur bobning *“MDHga a'zo mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining qo'llanishi”* deb nomlangan birinchi paragrafida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining muqobili sifatida uy qamog'ini qo'llashning huquqiy tartibga solinishi yoritilgan hamda mazkur davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotida mazkur ehtiyot chorasini qo'llash borasidagi tajribalariga atroflicha to'xtalinib, qiyosiy tahlil qilish orqali nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan.

Dissertantning ta'kidlashicha, keyingi yillarda MDHga a'zo ba'zi mamlakatlarda ehtiyot choralari tizimiga uy qamog'i kiritildi. Xususan, 2009-yilda qabul qilingan Tojikiston JPKning 110-moddasida, 2013-yilda qabul qilingan Ukraina JPKning 181-moddasida, Qozog'iston Respublikasi JPKning 149-moddasida, Belarus Respublikasi JPKning 125-moddasida, Gruziya JPKning 166-moddasida, Moldova Respublikasi JPKning 188-moddasida, Qirg'iz Respublikasi JPKning 109-moddasida uy qamog'i tariqasidagi ehtiyot chorasi o'z aksini topdi. Bu haqda tavsiya MDH Parlamentlararo Assambleyasi 1996-yil 17-fevralda tasdiqlagan JPK Modelida aks ettirilgan edi. Uning 175-moddasida: uy qamog'i qo'llangan shaxsning zimmasiga: uyidan muttasil yoki muayyan vaqtlarda chiqib ketmaslik; telefonda so'zlashmaslik, aloqa vositalaridan foydalanmaslik, xat-yozishmalar yubormaslik; uyda o'rnatilgan maxsus elektron nazorat vositalarining nazdida bo'lish va ularni soz holda ishlashini ta'minlash; nazorat tartibida telefon orqali chaqirganda javob berish yoxud muayyan vaqtlarda telefonda o'zi to'g'risida xabar berib turish; ayblanuvchini yoki uning uy-joyini kuzatish, uyini yoxud unga ajratilgan xonani qo'riqlab turish; ayblanuvchining jamiyat bilan aloqasini cheklash yoki uning xulq-atvorini kuzatishga qaratilgan boshqa choralarni ko'rish kabi majburiyatlar yuklatilishi nazarda tutilgan.

Muallif bugungi kunda aksariyat MDH mamlakatlari jinoyat-protsessual qonunchiligidagi uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi yuqoridagi norma mazmuniga juda yaqin bo'lsa-da, ularning o'ziga xos farq qiluvchi jihatlari ham mavjudligini, xususan, bular ushbu ehtiyot chorasini qo'llash tartibida, u bilan bog'liq muddatlar va ularni uzaytirishda, uy qamog'ini qo'llashga sanksiya berishga vakolatdor mansabdor shaxslar bilan bog'liq o'ziga xosliklarda namoyon bo'lishiga alohida urg'u beradi.

Dissertant ushbu bobning *“AQSh va ayrim Yevropa davlatlari jinoyat-protsessual qonunchiligida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘ini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos jihatlari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida mazkur ehtiyot chorasining AQSh va ayrim Yevropa davlatlari qonunchilik tizimidagi yondashuvlarini tahlil qilgan holda, ularning normativ-huquqiy asoslari, qo‘llash shartlari va amaliyotdagi xususiyatlarini qiyosiy-huquqiy yondashuv asosida o‘rganadi. Xususan, dissertant AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Shvetsiya, Isroil va boshqa davlatlar misolida uy qamog‘i institutining ehtiyot chorasi va jinoiy jazo shaklidagi qo‘llanish uslublarini o‘zaro solishtiradi.

Ushbu paragrafda uy qamog‘ining AQShda ikki xil ko‘rinishda – ehtiyot chorasi va jazo sifatida – tatbiq etilishi, har bir shtatning o‘z jinoyat-protsessual yurisdiksiyasi mavjudligi sababli amaliyotdagi farqlar yuzaga kelishi tahlil qilingan. Ayniqsa, konstitutsiyaviy huquqlarni muhofaza qilishga oid IV o‘zgartirish, uy qamog‘ining sud qarori asosida va shaxsning roziligi bilan cheklangan shaklda qo‘llanilishini belgilashi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar – xususan, elektron monitoring tizimlarining keng joriy etilgani alohida qayd etilgan. AQSh tajribasida uy qamog‘i institutining nafaqat jazo, balki ijtimoiy reabilitatsiya vositasi sifatida qo‘llanishi, unga nisbatan shaxslarning jamiyatdagi xavf darajasini baholash mezonlari asosida yondashilishi ko‘rsatilgan.

Dissertant, shuningdek, Yevropa davlatlari, xususan, Fransiya, Italiya, Germaniya va Shvetsiya qonunchiligi asosida uy qamog‘ining huquqiy tartibga solinishi masalalarini tahlil qilgan. Fransiya qonunchiligida *“ehtiyot chorasi”* atamasi ishlatilmasligi, biroq amalda qo‘llanilayotgan *“sudgacha nazorat”* instituti mazmunan uy qamog‘iga yaqin bo‘lib, shaxsga nisbatan keng majburiyatlar tizimini nazarda tutishi ko‘rsatiladi. Italiya tajribasida esa uy qamog‘i ehtiyot chorasi va jazo sifatida mustahkam huquqiy asosga ega bo‘lib, 284-modda orqali qo‘llanilish tartibi batafsil belgilangan. Shvetsiya modelida esa texnologik nazorat – ovoqli identifikatsiya va bilaguzuklar yordamida nazorat qilish tizimining samaradorligi statistik ma’lumotlar bilan asoslab berilgan.

Dissertant shuningdek, uy qamog‘i institutining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, jinoyatchilik darajasiga ta’siri, shaxsning jamiyatga integratsiyalashuvi va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan qo‘llanish mexanizmlarini ham har tomonlama tahlil qiladi. Ayni yo‘nalishda Isroil, Avstraliya va boshqa davlatlar tajribasida ham elektron monitoring vositalarining o‘rni, uy sharoitida jazoni o‘tash tartiblari va qonunchilikdagi cheklovlar o‘rganilgan.

Umuman olganda, ushbu paragrafda dissertant tomonidan uy qamog‘i institutining xorijiy tajribalardagi o‘ziga xos modellar asosida shakllanishi, huquqiy asoslari va qo‘llash mexanizmlari ilmiy asoslangan holda tahlil etilgan bo‘lib, bu orqali milliy qonunchilikni takomillashtirishda foydalanish mumkin bo‘lgan samarali yondashuvlar ilgari surilgan.

Muallif tomonidan ushbu bobning *“Uzoq Sharq mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘ining qo‘llanishi”* deb nomlangan uchinchi paragrafida mazkur institutning Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya,

Singapur va Tayvan kabi mamlakatlar qonunchilik tizimidagi o'ziga xos shakllanish jarayoni, huquqiy tartibga solinishi va amaliy qo'llanilishi tahlil qilingan. Ushbu mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida uy qamog'i bevosita "ehtiyot chorasi" atamasi ostida belgilanmagan bo'lsa-da, u bilan funksional mazmuni jihatidan bog'liq bo'lgan huquqiy mexanizmlar – masalan, "kafillik va yashash joyida kuzatuv", "turar joy kuzatuv", "sudgacha erkinlikni cheklash", "garov bilan ozod etish va nazorat ostida saqlash" kabi institutlar mavjud.

Xususan, Xitoy Xalq Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida "majburlor choralari" bo'limi doirasida "kafillik va yashash joyida kuzatuv" ehtiyot chorasiga muqobil tartib sifatida belgilanib, bu chorani faqat muayyan holatlarda – homilador ayollar, sog'lig'i og'ir bo'lgan shaxslar, nogironlar yoki chaqalog'ini emizayotgan ayollarga nisbatan qo'llash mumkinligi qonuniy ravishda nazarda tutilgan. Bu yondashuv uy qamog'i institutining insonparvarlik tamoyiliga asoslangan tarzda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, dissertant tomonidan Yaponiyada uy qamog'i mustaqil ehtiyot chorasi sifatida deyarli qo'llanilmasligi, biroq, qamoqqa olishning asosiy alternativi garov bilan bir vaqtda qo'llaniladigan qo'shimcha taqiq(cheklov)lar mohiyatan uy qamog'i ehtiyot chorasi bilan o'xshash ekanligi asoslangan. Janubiy Koreyada esa uy qamog'ining o'rnini asosan "sudning kafillikka qo'yish orqali ozod qilish" instituti egallaydi, biroq ayrim holatlarda shaxsning doimiy yashash joyida politsiya nazorati ostida saqlanishi mumkin.

Dissertant Tayvan misolida uy qamog'i ehtiyot chorasi sifatida qo'llanilayotganini alohida tahlil qiladi. Bu mamlakatda uy qamog'i ayniqsa iqtisodiy jinoyatlar, korrupsiyada gumon qilinayotgan mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Uning huquqiy asoslari jinoyat-protsessual qonunchiligida aniq tartibda belgilanib, bu ehtiyot chorasi shaxsga nisbatan harakatlanish erkinligini cheklash bilan birga, tergov va sud faoliyatining to'laqonli yuritilishini ta'minlashga xizmat qilishi ko'rsatiladi.

Paragrafda, shuningdek, O'zbekiston va Uzoq Sharq davlatlari qonunchilik tizimi o'rtasida qiyosiy tahlil olib borilgan. Dissertantning ta'kidlashicha, O'zbekiston Respublikasi JPKda uy qamog'i ehtiyot chorasi sifatida bevosita mustahkamlangan bo'lsa-da, Uzoq Sharq mamlakatlarida bu institut ko'proq umumlashtirilgan va shartli shaklda mavjud. Shu nuqtayi nazardan, milliy qonunchilikda ushbu choraning konkret belgilanishi va sud-huquq amaliyotida barqaror qo'llanilishi mavjud bo'lib, bu uni mintaqaviy huquqiy tajribadan ajratib turadi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi "**Ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llashning protsessual mexanizmini takomillashtirish**" deb nomlanib, uning birinchi paragrafi "*Ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llashning protsessual asoslari va shartlari*" masalasiga bag'ishlangan. Ushbu paragrafda ehtiyot choralari tizimining umumiy mazmuni, ularning inson erkinligi va huquqlariga ta'siri, shuningdek, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining qonuniy asosda qo'llanishiga oid prinsipial yondashuvlar kompleks ravishda tahlil qilingan.

Jumladan, uy qamog'ini qo'llash asoslari nafaqat qonunda belgilangan, balki buning uchun ma'lum shart-sharoitlar bo'lishi zarurligi, ushbu shartlar va qonuniy asoslar birgalikda jinoyat protsessi qatnashchilari huquqlari buzilishini oldini olishga va ushbu ehtiyot chorasini istiqbolli amalga kiritishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Dissertantning ta'kidlashicha, uy qamog'ini qo'llash asoslari sifatida tergov materiallaridagi dallilar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar hisoblanib, ular ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchini tergovdan yoki suddan yashirinishi, jinoiy faoliyatni davom ettirishi, jinoyat protsessi ishtirokchilariga bosim o'tkazishi, dalillarni o'zgartirishi yoki yo'q qilishi, hukm ijrosiga to'sqinlik qilishi mumkinligiga oid o'z tasdig'ini topgan ma'lumotlar bo'lishi mumkinligi asoslangan.

Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini qo'llash shartlari – bu aynan mazkur ehtiyot chorasini qo'llashga yo'l ochib beradigan va uni qonuniyligini ta'minlaydigan jinoiy-huquqiy va faktik shart-sharoitlardir. Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini qo'llash shartlari umumiy va maxsus shartlarga bo'linadi. Umumiy shartlar – bu jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan shartlar bo'lib, ushbu ehtiyot chorasini qo'llashga asos bo'la oladi. Ular quyidagilardan iborat: amaldagi jinoiy hodisa mavjudligi; tergovni olib borish va ehtiyot chorasini belgilash huquqiga ega subyekt borligi; tergov obyeksi – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi borligi; tergov materiallarida uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun yetarli asos borligi. Maxsus shartlar – bu faktik, ya'ni amaldagi shartlar bo'lib, ular tanlovning qonuniyligi va uning keyingi ijrosini ta'minlaydi: jinoiy-huquqiy – jinoyat kategoriyasi; kriminologik-huquqiy – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar (yoshi, sog'lig'i holati, oilaviy ahvoli, sudlanganligi, mehnat faoliyati, yashash, ish yoki o'qish joyidan tavsifnomalar va sh.k.); gumon qilinuvchi, ayblanuvchining yashash joyi mavjudligi va uning maqomi; cheklovlar o'rnatish mumkinligi tasniflangan.

Dissertantning fikricha, ayrim davlatlar JPKda yuqoridagi kabi faktik (maxsus) shartlarning ayrimlari, xususan: shaxsning keksaligi, nogironligi, homiladorligi, yosh bolasi borligi, voyaga yetmaganligi uchun qamoqqa olishga asoslar mavjud bo'lsada uy qamog'ini qo'llash shartligi belgilangan. Masalan: Moldoviyada 60 yoshdan oshgan, birinchi guruh nogironi, homilador yoki 8 yoshgacha bolasi bor ayollarga qamoqqa olishning muqobili tariqasida uy qamog'ini qo'llash lozim. Muallif bu holatda yuqoridagi singari ayblanuvchining shaxsiy sifatlari ehtiyot chorasini sifatida uy qamog'ini qo'llash asosi hisoblanishini va bu protsessual qonunchilikning yanada insonparvarlashishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi JPKda yuqoridagi holatlar kabi sifatlarga ega shaxslar uchun ehtiyot chorasini sifatida uy qamog'ini qo'llash shartligi belgilansa, aniqrog'i sog'lig'i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlardan qat'iy nazar ehtiyot chorasini sifatida uy qamog'ini qo'llanilishi lozim bo'lgan shaxslar doirasini kiritish lozim. Jumladan, dissertant I-II guruh nogironlari, 70 yoshdan oshgan keksalar, homilador yoxud 3 yoshgacha bolasi bor bo'lgan ayollar, 16 yoshga to'lmaganlar shunday shaxslar doirasiga kiritilishi yuzasidan takliflarni ilgari suradi.

Mazkur bobning “*Uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash tartibi va muddatlari*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash tartibi hamda uning protsessual muddatlari tahlil qilingan.

Dissertant prokuror yoki tergovchilarning ushbu ehtiyot chorasini qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni hal etishi yuzasidan sudga shikoyat qilish tartibi joriy qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lishi haqida ilmiy-nazariy takliflarni ilgari suradi. Xususan, prokurorning qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnoma asosligini tekshirishi natijalaridan taraflar norozi bo‘lsa, uning harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishi mumkinligi va bu holatda sud uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnoma kelib tushgan zahoti ko‘rib chiqishni rad etib, shikoyatdagi vajlarni o‘rganish uchun darhol yuqori turuvchi prokurorga ish materiallari bilan yuborish amaliyotini joriy qilish lozimligi ta’kidlanadi.

Shuningdek, muallif tomonidan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining xorijiy davlat hududida ushlab turilgan yoxud uy qamog‘ida saqlash muddati ham agar shaxsning aybdorligi kelgusida sud hukmi bilan tasdiqlansa, unga nisbatan sudya tomonidan jazo tayinlash vaqtida ham inobatga olinishi lozimligi asoslangan. Chunki, qamoqqa olishga nisbatan yengil bo‘lsa-da, shaxsni protsessual tartibda ushlab turish yoxud uy qamog‘ida saqlash amalda uni harakatlanish erkinligini cheklaydi, jamiyatdan ajratilishiga sabab bo‘ladi.

Dissertant mazkur paragrafda uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasini qo‘llash algoritmini to‘rt bosqichga bo‘ladi:

1-bosqich – gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga nisbatan uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasini qo‘llashni asoslab berish va protsessual qarorni shakllantirish;

2-bosqich – protsessual qarorni ichki va prokuror nazorati yordamida kelishish va muvofiqlashtirish, qarorni protsessual rasmiylashtirish;

3-bosqich – uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasini qo‘llashni asoslab beradigan ish materiallari va dalillarni protsessual rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish uchun sudga yuborish;

4-bosqich – sudga taqdim etilgan uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasini qo‘llashni asoslab beradigan ish materiallari va dalillarni hamda uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomani sud tartibida ko‘rib chiqish va uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasini qo‘llashning qonuniyligi va asoslanganligi to‘g‘risida ajrim chiqarish.

Ushbu bobning “*Uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini boshqa ehtiyot choraga almashtirishning protsessual tartibi*” deb nomlangan uchinchi paragrafida mazkur ehtiyot chorasini boshqa ehtiyot chorasiga o‘zgartirishning protsessual-huquqiy asoslari va tartibi tahlil qilingan.

Dissertant jinoyat-protsessual qonunchiligi normalariga tayanib, ishni sudga qadar yuritish bosqichida qo‘llanilgan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini shaxsni bundan keyin qamoqqa saqlash yoki uning uy qamog‘ida bo‘lishi uchun asoslar mavjud bo‘lmaganda prokuror tomonidan, shuningdek prokurorning roziligi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ehtiyot

choralari to'g'risida qaror chiqargan sudni albatta xabardor etgan holda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkinligini, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasining bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi ushbu ehtiyot chorasini aynan o'sha shaxsga nisbatan qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga takroran murojaat etishga monelik qilmasligini ta'kidlaydi.

